

SHAROPOV DILSHOD RAVSHANOVICH

Bukhara State University

Uzbekistan

Received 1st December 2022, Accepted 5th December 2022, Online 12th December 2022

CURRENTLY, THE PLACE OF AFGHANISTAN IN THE COMMUNICATION OF CENTRAL AND SOUTH ASIA

Abstract: This article describes the role of the new political power in Afghanistan, the Taliban government, in transit relations between Central and South Asia, as well as its impact on the security and stability of the region.

Key words: international relations, communication, transit relations, community, transport-communication, humanitarian diplomacy, trans-Afghan, joint-stock company, investment, foreign market, sanctions.

В НАСТОЯЩЕЕ ВРЕМЯ МЕСТО АФГАНИСТАНА В СООБЩЕНИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ И ЮЖНОЙ АЗИИ

Аннотация: В данной статье описывается роль новой политической силы в Афганистане, правительства талибов, в транзитных отношениях между Центральной и Южной Азией, а также ее влияние на безопасность и стабильность в регионе.

Ключевые слова: международные отношения, связь, транзитные отношения, сообщество, транспортно-коммуникационная, гуманитарная дипломатия, трансафганская, акционерное общество, инвестиции, внешний рынок, санкции.

HOZIRGI KUNDA AFG‘ONISTONNING MARKAZIY VA JANUBIY OSIYO KOMMUNIKATSIYASIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Afg‘onistondagi yangi siyosiy hokimiyat hisoblanmish Tolibon hukumatining Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi tranzit aloqalardagi o‘rni, hamda mintaqa xavfsizligi va barqarorligiga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro aloqalar, kommunikatsiya, tranzit aloqala, hamjamiyat, transport-kommunikatsiya, insonparvarlik diplomatiyasi, transafg‘on, aksiyadorlik jamiyati, sarmoya, tashqi bozor, sanksiya.

KIRISH (INTRODUCTION)

Afg‘onistonda Tolibon hokimiyatni egallaganiga bir yildan oshdi. Xalqaro hamjamiyat tomonidan salbiy munosabat bilan qarshilangan bu o‘zgarish Afg‘oniston tarixining yangi bosqichi sifatida qaralmoqda. Hamon biror davlat tan olmagan bu hukumat kelajakda tinch yashashi,

muammolarni bartaraf qilishi, rivojlangan iqtisodiyotga ega bo'lishi uchun xalqaro hamjamiyat madadiga muhtoj.

Xalqaro hamjamiyat uchun eng muhimi — Afg'onistonda urush to'xtab, tinch va barqaror muhitning yuzaga kelishidir. Faqat shunday vaziyatgina mintaqaning, xususan - O'zbekistonning janubiy yo'nalishdagi, shu jumladan, ushbu qo'shni davlatga tegishli ko'plab geostrategik iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun qulay zamin yaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Markaziy Osiyoda Afg'onistonning o'rni, uning mintaqa xavfsizligiga ta'siri haqida mustaqillik davrida va undan keyin ham juda ko'p tadqiqotlar olib borilgan. Bugungi kunda ham bu mavzu o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr etilgan tadqiqotlar
2. Xorijda qilingan tadqiqotlar

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil tamoyillariga tayanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS)

Tolibon hokimiyatga kelguniga qadar Afg'onistonda kuniga 200-300 odam halok bo'lar, davlat mablag'larining katta qismi urushga sarflanar edi. Ta'lim tizimi, umuman ijtimoiy – iqtisodiy hayot ayanchli ahvolda bo'lib kelgan. Bugungi kunda Tolibon oldida katta to'siqlar bor- sanksiyalar, shuningdek, xalqaro hamjamiyat yordamni kesib qo'yan. Biroq yangi hukumat hamjamiyatning o'ziga bo'lgan salbiy fikrini o'zgartirishga harakat qilayapti. Qo'lida bor mablag'ni, qariyb 30 milliard afg'oniyini, xalq ravnaqi uchun sarflashga bel bog'lagan [1].

2022 - yilning 25-26 iyul kunlari Toshkent shahrida “Afg'oniston: xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot” xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda Afg'oniston tashqi ishlar vaziri vazifasini bajaruvchi Amir Xon Muttakiy boshchiligidagi Muvaqqat hukumati delegatsiyasi hamda O'zbekiston hukumati, turli vazirlik va idoralar rahbarlari va dunyoning 20 dan ortiq mamlakatlaridan hukumat vakillari, mutaxassislar ishtirok etishdi. Xalqaro konferensiyada asosiy masalalardan biri – transport-kommunikatsiya yo'nalishini, xususan, O'zbekiston – Afg'oniston – Pokiston davlatlari orasida temir yo'l liniyasini qurish bo'yicha loyiha ishlarini ko'rib chiqish masalasi ham o'rin olgan edi. Shu munosabat bilan, 2022 – yil 25 iyul kuni, “O'zbekiston temir yo'llari” aksiyadorlik jamiyatida boshqaruv raisi hisoblangan X.Xasilov Afg'oniston temir yo'llari bosh direktori Baxt Ul-Raxmon Sharofat hamda uning texnik masalalar bo'yicha o'rinbosari Seddiki Abdul Bari bilan uchrashdi. [2]

Tadbirda X.Xasilov “Termiz – Mozori-Sharif – Qobul – Peshovar” temir yo'lini qurilishi mintaqa davlatlari, xususan, Markaziy Osiyo hamda Afg'oniston mamlakati uchun yirik istiqbolli, iqtisodiy jihatdan katta foyda bo'ladigan loyiha ekanligini ta'kidlab, tezroq ushbu qurilishni amalga oshirish va bu yo'nalishda yuk tashishni ta'minlab, O'zbekiston qo'shni davlatlarni temir yo'l orqali

Pokiston bandargohlariga chiqishini amalga oshirish zarurligini qayd etdi. Shu bilan birga Afg'oniston uchun ham keng qamrovda tranzit imkoniyatlarini yaratib, ushbu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga, xususan, temir yo'llarini tez orada taraqqiy etib ketishiga sabab bo'lishini ta'kidladi. Buning uchun "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati tomonidan yaqin qo'shnimiz bo'lgan Afg'oniston temir yo'llariga zarur bo'ladigan barcha yordamlarni berishga tayyorligini aytib o'tdi. O'z o'rnida Afg'oniston temir yo'llari bosh direktori Baxt Ul - Raxmon Sharofat ham X.Xasilovga qabul uchun samimiy minnatdorchilik bildirib, yaqin qo'shni va birodar xalq bo'lgan O'zbekiston bilan Afg'oniston aloqalari har tomonlama ishonchli rivojlanayotganidan mamnun ekanligini aytib o'tdi. Bu ayniqsa, transport-kommunikatsiya tizimidagi uzoq yillik ishonchli hamkorlik yana-da rivojlanishiga katta umid bildirdi. [2]

Uchrashuvda shuningdek, Afg'oniston temir yo'llari rahbari afg'onistonlik yoshlarni O'zbekistonda tahsil olishini yana-da ko'paytirishda hamkorlikni rivojlantirish zarurligini ham aytib o'tdi [2].

Bu kabi xalqaro doiradagi qator uchrashuvlar o'z samarasini ko'rsatib, Termiz — Mozori Sharif — Kobul — Peshovar kommunikatsion temir yo'li qurilsa Eron, Pokiston portlariga yo'l ochiladi. Loyiha O'zbekiston sharoitida eng katta masala - portlarga chiqish yo'li va infratuzilmasini yaratish muammosini ijobiy hal qiladi. "Termiz — Mozori Sharif — Kobul — Peshovar" temir yo'li loyihasi salmog'i ulkan va istiqboli yuqori bo'lgan kommunikatsiya ko'lamini kengaytiradigan loyihadir. Toshkentda "Asr loyihasi" qurilishi loyihasiga Pokiston, Afg'oniston, O'zbekiston vakillari samimiy va do'stona ruhda qaror qabul qildilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev jurnalistlar bilan uchrashuvda Termiz — Mozori Sharif — Kobul — Peshovar temir yo'li qurilishining ilk bosqichlari uchun Jahon banki tomonidan 35 mln dollar mablag' ajratilishini ma'lum qildi.

Qayd etilishicha, tarixda qoladigan ishlardan biri O'zbekiston xalqiga mulk bo'ladigan ikkita temiryo'l — O'zbekiston — Qirg'iziston — Xitoy temir yo'li va Termiz — Mozori Sharif — Kobul — Peshovar temir yo'li hisoblanadi. [3]

Transafg'on temir yo'lining qurilishi O'zbekiston uchun qo'shimcha bozorlar paydo bo'lishiga, ishlab chiqarayotgan mahsulotlar tannarxining 60–70 foizga kamayishiga imkon yaratadi. Loyihani amalga oshirish uchun 5 yil ketishi mumkin. Bunga 4,8 mlrd dollar kredit mablag'larini jalb qilish rejalashtirilayotgani haqida ham xabar berilgan edi. Shuningdek, mazkur qurilish ishlari kelasi yilning sentyabr oyida boshlanishi kutilayotganligi ham ma'lumot berilgan [3].

Samarqandda 15 - 16 - sentabr 2022-yilda o'tkazilgan ShHT ning 22 - yig'ilishida Afg'oniston masalasiga ham e'tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ShHT Samarqand sammitiga bag'ishlangan dasturiy ahamiyatga ega bo'lgan konseptual maqolasida bugun ShHT doirasida shakllangan mana shunday ijobiy va muvaffaqiyatli tajribadan Afg'onistonni rivojlantirish masalasida ham foydalanish o'ta muhim va dolzarb ekanligini, shak-shubhasiz, Afg'oniston ShHT makonining ajralmas qismi ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Bugun afg'on xalqi qo'shni va xayrixoh davlatlar ko'magiga har qachongidan ham muhtoj. Iqtisodiyot izdan chiqqan. Xalqaro hamjamiyat Afg'onistonga birgalikda yordam qo'lini cho'zishi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, mintaqaviy va global taraqqiyot jarayonlariga integratsiyalashuviga

ko'maklashishi va shu orqali ushbu davlatning ko'p yillik inqirozdan chiqishi uchun qulay sharoit yaratib berish har qachong kabi, eng muhim vazifa hisoblanadi [4].

Asrlar davomida global miqyosdagi davlatlar va mintaqaviy kuch markazlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarda bufer rolini o'tab kelgan Afg'oniston endilikda Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'lovchi ko'prik vazifasini bajarishdek yangi tinchlik missiyasida o'zini namoyon etmog'i lozim.

Bunday o'zaro manfaatli mintaqalararo hamkorlikning namunaviy ramzi sifatida Transafg'on koridorining qurilishi loyihasini aytish mumkin. Shuni ham anglash muhimki, "Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar" temir yo'li kabi qo'shma infratuzilma loyihalarini birgalikda amalga oshirish orqali, ijtimoiy-iqtisodiy va transport-kommunikatsiya vazifalarini hal etibgina qolmasdan, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga ham salmoqli hissa qo'shish mumkin. Bu loyihaning ahamiyati Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari uchun birdek manfaatli hisoblanadi. Afg'onistonda tinchlik o'rnatilsa, avvalambor, O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa qo'shni davlatlari uchun janubga yo'l ochiladi, ya'ni ular uchun yangi savdo yo'llari orqali Pokiston, Hindiston hamda Yaqin Sharq bozorlariga to'g'ridan-to'g'ri kirib borish imkoniyati paydo bo'ladi. Shuningdek, O'zbekiston o'zining tranzit va eksport salohiyatini keng ko'lamda rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi. Natijada yer yuzining 2 milliarddan ko'proq odami yashaydigan, yalpi ichki mahsuloti 3,5 trillion dollar bo'lgan Janubiy Osiyo mamlakatlari biz uchun yirik iqtisodiy bozori bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Janubiy Osiyo mamlakatlari ham Afg'oniston va O'zbekiston hududlari orqali Shimol tarafdagi boshqa Markaziy Osiyo davlatlari hamda Rossiya va Xitoy bozorlariga qisqa yo'l bilan kirib kelishlari mumkin. Ushbu ijobiy imkoniyat Afg'onistonni yirik tranzit davlatga aylantirib, mamlakat iqtisodiyotini jadal tarzda rivojlantirish istiqbolini yaratadi. Boz ustiga, ushbu yurtga xorijiy sarmoyalar oqimi kuchayib, uning hududida joylashgan qazilma boyliklar afg'on xalqi ravnaqiga xizmat qilishni boshlaydi.

«Mozori Sharif — Qobul — Peshovar» temir yo'l loyihasi to'liq amalga oshirilishi bilan Pokistondan O'zbekistonga yuk tashish uchun 35 kun emas, 3–5 kun sarflanishi kutilmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, konteynerni Toshkentdan Karachiga etkazish narxi taxminan 1400–1600 dollarga teng bo'ladi, hozir amaldagi «Toshkent — Bandar Abbos» yo'nalishida bu xarajat 2600–3000 dollarni tashkil qilmoqda.

Mozori Sharifdan Peshovargacha bo'lgan temir yo'l qurilishi doirasida 264 ta ko'prik, 7 ta tunnel va 641 ta suv o'tkazgichli tizimli infratuzilma yaratiladi, bu Afg'oniston va Pokistondagi kesib o'tuvchi hududlarning rivojlanishiga yordam berishi mumkin.

O'zaro pozitsiyalarimizni yaqinlashtirib, tinch, barqaror va farovon Afg'oniston uchun ShHTning yangi kun tartibini birgalikda ishlab chiqa olishimizga aminman. Shundagina tom ma'noda barqaror va izchil rivojlanayotgan, yaxlit xavfsizlikka ega bo'lgan ShHT makonini barpo eta olamiz.

XULOSA VATAKLIFLAR (CONCLUSION NOTES)

Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun strategik ahamiyatga va qulay geografiyaga ega bo'lgan Afg'onistondagi siyosiy-ijtimoiy vaziyat ushbu mintaq mamlakatlarining tinchligi uchun haligacha xavf tug'dirayotganligi hech kimga sir emas. Qariyb 20 yil davomida mamlakatda vaziyatni nazorat qilgan xalqaro koalitsiya qurolli kuchlarining

Afg‘onistondan chiqib ketishi, “Tolibon” harakatining siyosiy hukumatni qo‘lga olishlariga imkoniyat yaratdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan 2021-yilning 15-16-iyul kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiya muhim hamda tarixiy ahamiyat kasb etdi. Zero, O‘zbekistonning faol va insonparvarlik diplomatiyasi Afg‘oniston hududini Markaziy hamda Janubiy Osiyoni o‘zaro bog‘laydigan ko‘prikka aylantirishga, ya’ni afg‘on diyoriini ikki submintaqa o‘rtasida o‘ziga xos iqtisodiy-geografik koridor bo‘lishiga olib kelishi mumkin. [5]

O‘zbekiston uchun eng muhimi — Afg‘onistonda urush to‘xtab, tinch va barqaror muhitning yuzaga kelishidir. Faqat shunday vaziyatgina O‘zbekistonning janubiy yo‘nalishdagi, shu jumladan, ushbu qo‘shni davlatga tegishli ko‘plab geostrategik iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun qulay zamin yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (LIST OF REFERENCES)

[1]. Prezident Shavkat Mirziyoyev jurnalistlar bilan uchrashuvda Termiz — Mozori Sharif — Kobul — Peshovar temir yo‘li qurilishining ilk bosqichlari.

<https://www.gazeta.uz/oz/2021/06/02/new-railway/>

[2]. shavkat-mirziyoyevning-shht-samarqand-sammitiga-bagishlangan maqola

https://dunyo.info/cyrl/site/inner/shanhay_%D2%B3amkorlik_tashkilotining_samarqand_sammiti_oz_aro_bogliqlidagi_dunioda_muloqot_va_%D2%B3amkorlik-1br

[3]. https://railway.uz/uz/informatsionnaya_sluzhba/novosti

[4]. Suhayl Shahin. URL // <https://www.amerikaovozi.com>

[5]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqi. URL . <https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shmmirziyoyevning-markaziy-va-janubiy-osiyo-mintaqaviy-ozaro-bogliqlik-tahdidlar-va-imkoniyatlar-mavzusidagi-xalqaro-konferensiyadagi-nutqi>.